

**INTERNATIONAL ECONOMIC CRISES: CAUSES AND CONSEQUENCES****Turayev Abduvoxid Kuldashevich**Assistant Lecturer, Department of Digital Economy,  
Samarkand Institute of Economics and Service  
Email: [abduvoxidturayev70@gmail.com](mailto:abduvoxidturayev70@gmail.com)**Kurasheva Sumbula**

Student, Samarkand Institute of Economics and Service

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20069466>

**Abstract:** This article analyzes the formation mechanisms of international economic crises, their main causes, and their impacts on both national and global economies. The study examines financial instability, the increasing debt burden, disruptions in supply chains, sharp fluctuations in energy and food prices, geopolitical conflicts, and uncertainties in economic policy as key factors intensifying international crises. The article provides a comparative analysis of the Great Depression of 1929–1933, the global financial crisis of 2008–2009, the economic shock during the COVID-19 pandemic, and the energy and food shocks after 2022. The findings indicate that international economic crises are not merely problems of a single country or sector, but rather simultaneous disruptions in interconnected systems of finance, trade, production, and trust.

**Keywords:** international economic crisis, global financial instability, inflation, external debt, trade protectionism, supply chain, economic policy, macroeconomic stability.

**XALQARO IQTISODIY INQIROZLAR: SABABLARI VA OQIBATLARI****Turayev Abduvoxid Kuldashevich**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Raqqamli iqtisodiyot kafedrasasi assistenti  
[abduvoxidturayev70@gmail.com](mailto:abduvoxidturayev70@gmail.com)

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

**Kurasheva Sumbula**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalqaro iqtisodiy inqirozlarning shakllanish mexanizmlari, ularning asosiy sabablari va milliy hamda global iqtisodiyotga ko'rsatadigan oqibatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda moliyaviy beqarorlik, qarz yukining ortishi, savdo zanjirlaridagi uzilishlar, energetika va oziq-ovqat narxlaridagi keskin tebranishlar, geosiyosiy ziddiyatlar hamda iqtisodiy siyosatdagi noaniqliklar xalqaro inqirozlarni kuchaytiruvchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada 1929-1933 yillardagi Buyuk depressiya, 2008-2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz, COVID-19 pandemiyasi davridagi iqtisodiy zarba va 2022 yildan keyingi energiya-oziq-ovqat shoklari qiyosiy tahlil qilinadi. Natijalar xalqaro iqtisodiy inqirozlar faqat bir mamlakat yoki bir sektor muammosi emas, balki o'zaro bog'langan moliya, savdo, ishlab chiqarish va ishonch tizimlarining bir vaqtda izdan chiqishi ekanini ko'rsatadi.



**Kalit soʻzlar:** xalqaro iqtisodiy inqiroz, global moliyaviy beqarorlik, inflyatsiya, tashqi qarz, savdo proteksionizmi, taʼminot zanjiri, iqtisodiy siyosat, makroiqtisodiy barqarorlik.

### **Kirish**

Jahon iqtisodiyoti bugungi kunda mamlakatlar, transmilliy korporatsiyalar, moliyaviy institutlar va xalqaro savdo oqimlari oʻzaro chuqur bogʻlangan murakkab tizimga aylangan. Bunday sharoitda bitta yirik iqtisodiyotdagi moliyaviy tanglik, talab qisqarishi yoki ishlab chiqarishdagi uzilish qisqa muddat ichida boshqa mamlakatlarga ham taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli xalqaro iqtisodiy inqirozlar zamonaviy global rivojlanishning eng murakkab va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>.

Xalqaro iqtisodiy inqiroz deganda bir nechta mamlakat yoki butun jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish, savdo, investitsiya, bandlik, moliya bozorlari va aholi daromadlarining izchil yomonlashuvi tushuniladi. Inqirozning oddiy iqtisodiy pasayishdan farqi shundaki, u bir vaqtning oʻzida bir nechta kanallar orqali tarqaladi: kapital harakati sekinlashadi, bank tizimiga ishonch pasayadi, eksport-import hajmi kamayadi, byudjet bosimi ortadi va narxlar beqarorlashadi.

Soʻnggi yillarda global iqtisodiyot bir-biriga ulanib ketgan bir nechta shoklarni boshdan kechirdi. Pandemiya davrida ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish tarmoqlari cheklovlarga duch keldi, 2022-yildan keyin energiya va oziq-ovqat narxlari keskin oʻzgardi, 2024-2025-yillarda esa savdo siyosatidagi keskinliklar va qarz yukining ogʻirlashuvi rivojlanayotgan davlatlar uchun qoʻshimcha xavf yaratdi<sup>2</sup>.

Mazkur maqolaning maqsadi xalqaro iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish sabablarini tizimli ravishda tahlil qilish, ularning asosiy oqibatlarini koʻrsatish hamda inqirozlarga qarshi iqtisodiy siyosat yoʻnalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy yondashuv va xalqaro tashkilotlarning eng yangi statistik maʼlumotlaridan foydalanildi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Xalqaro iqtisodiy inqirozlarni tushuntirishda turli iqtisodiy maktablar oʻziga xos yondashuvlarga ega. Keynesiy yondashuv inqirozlarni yalpi talabning yetishmasligi, investitsion faollikning susayishi va iqtisodiy kutishlarning yomonlashuvi bilan izohlaydi. Bu yondashuvga koʻra, bozor mexanizmi har doim ham tezkor muvozanatni taʼminlay olmaydi, shuning uchun davlat fiskal va monetar siyosat orqali talabni qoʻllab-quvvatlashi zarur.

Monetaristlar esa iqtisodiy beqarorlikning asosiy manbalaridan biri pul massasining notoʻgʻri boshqarilishi, kredit kengayishining haddan tashqari tezlashuvi yoki aksincha, likvidlikning keskin qisqarishi ekanini taʼkidlaydi. 2008-2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz misolida ipoteka kreditlari bozorida haddan tashqari risk, murakkab moliyaviy instrumentlar va bank nazoratining yetarli emasligi moliyaviy tizimdagi zaifliklarni ochib berdi.

Institutsional yondashuv inqirozlarni faqat makroiqtisodiy koʻrsatkichlar bilan emas, balki institutlar sifati, boshqaruv shaffofligi, tartibga solish tizimi va xalqaro muvofiqlashtirish darajasi bilan ham bogʻlaydi. Agar moliyaviy nazorat sust boʻlsa, xususiy sektor haddan tashqari qarz olsa yoki davlat siyosati qisqa muddatli siyosiy manfaatlarga boʻysunsa, inqiroz xavfi kuchayadi.

Xalqaro valyuta fondi 2025- yilgi Jahon iqtisodiyoti istiqbollari hisobotida global oʻsish surʼati 2024-yildagi 3,3 foizdan 2025-yilda 3,2 foizga va 2026-yilda 3,1 foizga sekinlashishini

1 Kindleberger C.P., Aliber R.Z. Manias, Panics, and Crashes: A History of Financial Crises. — London: Palgrave Macmillan, 2015. — P. 24–31.

2 UN Trade and Development. Global Crisis: Food, Energy and Finance. — Geneva: UNCTAD, 2024–2025.

qayd etadi. Bu holat global iqtisodiyotda tiklanish borligini, ammo o‘shish sifati va barqarorligi hali ham zaif ekanini ko‘rsatadi<sup>3</sup>.

Jahon banki 2025-yilgi Global Economic Prospects hisobotida savdo to‘siqlari, siyosiy noaniqlik, moliyaviy bozorlardagi salbiy kayfiyat va inflyatsion kutilmalar rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun muhim xavf omillari ekanini alohida ko‘rsatadi<sup>4</sup>. Demak, zamonaviy inqirozlarni tushunishda moliyaviy risklar bilan bir qatorda geoiqtisodiy bo‘linish, global savdo qoidalarining zaiflashuvi va davlat qarzi masalalarini ham inobatga olish zarur.

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy-tahliliy, tarixiy-qiyosiy va statistik umumlashtirish metodlariga tayangan holda olib borildi. Birinchi bosqichda xalqaro iqtisodiy inqiroz tushunchasi va uning ilmiy talqinlari o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda yirik xalqaro inqirozlar tarixiy tajriba sifatida tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda 2024-2026 yillarga oid eng yangi xalqaro prognoz va statistik ko‘rsatkichlar asosida zamonaviy risklar baholandi.

Maqolada inqiroz sabablari uch guruhga ajratildi: ichki makroiqtisodiy nomutanosibliklar, xalqaro moliya va savdo tizimidagi uzilishlar hamda tashqi shoklar. Oqibatlar esa ishlab chiqarish, bandlik, narxlar, byudjet, tashqi qarz, ijtimoiy farovonlik va xalqaro hamkorlik darajasi bo‘yicha tahlil qilindi.

### Natijalar va muhokama

Xalqaro iqtisodiy inqirozlarning birinchi asosiy sababi moliyaviy sektorning real iqtisodiyotdan uzilib ketishi bilan bog‘liq. Kreditlar haddan tashqari tez ko‘payganda, aktivlar narxi sun‘iy ravishda oshadi. Banklar va investorlar qisqa muddatli foyda ortidan yuqori riskli operatsiyalarga kirishadi. Bunday vaziyatda kichik ishonch inqirozi ham likvidlik tanqisligiga, banklararo kreditlashning to‘xtashiga va ishlab chiqarish investitsiyalarining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi sabab - tashqi qarz va foiz stavkalari bosimidir. Rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘pincha infratuzilma, import, byudjet taqchilligi yoki valyuta zaxiralarini qo‘llab-quvvatlash uchun tashqi qarzga tayanadi. Jahon moliya bozorlarida foiz stavkalari oshsa, qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari keskin ko‘payadi. Natijada davlat byudjetida ijtimoiy xarajatlar qisqarishi, milliy valyuta qadrsizlanishi va investitsiya muhiti yomonlashishi mumkin.

Uchinchi sabab - xalqaro savdo va ta‘minot zanjirlaridagi uzilishlardir. Global ishlab chiqarish tizimida bitta mahsulot turli mamlakatlarda ishlab chiqarilgan qismlardan yig‘iladi. Shu sababli transport yo‘llarining yopilishi, tariflarning oshishi, eksport cheklovlari yoki siyosiy ziddiyatlar ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi. Jahon savdo tashkiloti 2025-yilning birinchi yarmida jahon tovar savdosi hajmi yiliga nisbatan 4,9 foizga oshganini, biroq yil davomida tariflar va siyosiy noaniqliklar prognozlarga kuchli ta‘sir qilganini bildiradi<sup>5</sup>.

### Jadval 1. Xalqaro iqtisodiy inqirozlarning asosiy sabablari va tarqalish kanallari

Sabablar guruhi	Asosiy mazmuni	Tarqalish kanali	Ehtimoliy natija
Moliyaviy beqarorlik	Banklar, aktivlar narxi va kredit	Kapital oqimi, foiz stavkasi, likvidlik	Investitsiya pasayishi, bank

3 International Monetary Fund. World Economic Outlook: Global Economy in Flux, Prospects Remain Dim. — Washington, DC: IMF, October 2025.

4 World Bank. Global Economic Prospects. — Washington, DC: World Bank, June 2025.

5 World Trade Organization. Global Trade Outlook and Statistics Update. — Geneva: WTO, October 2025.

	risklarining izdan chiqishi		inqirozi
Qarz yukining ortishi	Davlat va xususiy sektor qarzining haddan tashqari ko'payishi	Valyuta kursi, byudjet xarajatlari	Defolt xavfi, ijtimoiy xarajatlar qisqarishi
Savdo zanjiri uzilishi	Tariflar, transport muammolari, eksport cheklovlari	Import narxi, ishlab chiqarish tannarxi	Inflyatsiya, mahsulot tanqisligi
Tashqi shoklar	Pandemiya, urush, energiya va oziq-ovqat narxlari o'zgarishi	Narxlar, migratsiya, talab va taklif	Iqtisodiy pasayish, kambag'allik ortishi
Siyosiy noaniqlik	Sanksiyalar, proteksionizm, geoiqtisodiy bo'linish	Kutilmalar, investitsiya va savdo	Ishonch pasayishi, kapital chiqib ketishi

Manba: muallif tomonidan xalqaro iqtisodiy adabiyotlar va zamonaviy inqiroz tajribasi asosida tuzilgan.

To'rtinchi sabab - energiya va oziq-ovqat bozorlaridagi beqarorlikdir. Neft, gaz, don, o'g'it va transport xarajatlari ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish hamda iste'mol narxlariga bevosita ta'sir qiladi. UN Trade and Development ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyadan keyingi davrda inflyatsiya, oziq-ovqat xavfsizligi, energiya narxlari, ta'minot zanjiri uzilishlari va qarz yukining ortishi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun ayniqsa og'ir muammoga aylandi<sup>6</sup>.

Inqirozlarning oqibatlari ko'p qatlamli bo'ladi. Eng avvalo, real ishlab chiqarish pasayadi. Korxonalar talab kamaygani uchun ishlab chiqarishni qisqartiradi, yangi investitsiyalarni kechiktiradi va xarajatlarni kamaytirishga majbur bo'ladi. Bu esa bandlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlik ortishi uy xo'jaliklari daromadining kamayishiga, iste'molning pasayishiga va keyingi bosqichda yalpi talabning yanada qisqarishiga olib keladi.

Ikkinchi oqibat - inflyatsiya va turmush darajasining pasayishidir. Ba'zi inqirozlarda talab kamaygani uchun narxlar pasayadi, ammo zamonaviy sharoitda ko'plab inqirozlar taklif shoklari bilan bog'liq bo'lgani sababli narxlar oshishi ham mumkin. Energiya, oziq-ovqat va import mahsulotlarining qimmatlashuvi aholining real daromadini kamaytiradi. Bu jarayon ayniqsa kam daromadli qatlamlarga kuchli ta'sir qiladi.

Uchinchi oqibat - davlat moliyasi bosimining ortishidir. Inqiroz vaqtida davlatlar aholini qo'llab-quvvatlash, biznesga yordam berish, bank tizimini barqarorlashtirish va infratuzilmani saqlash uchun ko'proq mablag' sarflaydi. Shu bilan birga, soliq tushumlari kamayadi. Natijada byudjet taqchilligi va davlat qarzi ortadi. Agar qarz milliy valyutada emas, xorijiy valyutada bo'lsa, valyuta kursining qadrsizlanishi qarz yukini yanada og'irlashtiradi.

#### Jadval 2. 2024-2026 yillarda jahon iqtisodiyotiga oid ayrim dolzarb ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	2024	2025	2026	Izoh
Jahon YaIM o'sishi, IMF prognozi	3,3%	3,2%	3,1%	O'sish sekinlashmoqda, xavflar pastga og'gan

<sup>6</sup> UN Trade and Development. Global Crisis: Food, Energy and Finance. — Geneva: UNCTAD, 2024–2025.

Jahon o'sishi, bahosi	YaIM Jahon banki	-	2,3%	-	2025 yil 2008 yildan keyingi eng sust davrlardan biri sifatida baholangan
Tovar hajmi, yangilangan prognozi	savdosi WTO	-	2,4%	-	2025 yil uchun tariflarga moslashtirilgan prognoz
Jahon UNCTAD bahosi	savdosi,	-	ijobiy o'sish	-	2025 yil rekord oqimlar yili bo'lishi kutilgan, biroq III-IV chorakda sekinlashish kuzatilgan
Asosiy xavflar		-	savdo keskinligi, qarz, inflyatsiya, siyosiy noaniqlik	-	Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun ta'sir kuchliroq

Manba: IMF, World Bank, WTO va UNCTAD hisobotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirildi.

Jadvaldan ko'rinadiki, 2025-2026 yillarda jahon iqtisodiyoti to'liq inqiroz holatida bo'lmasa-da, uning o'sish sur'ati mo'tadil va zaif risklarga sezgir bo'lib qolmoqda. Bu holat "sekin o'sish - yuqori noaniqlik" muhitini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda yirik inqirozlar nafaqat bank yoki savdo tizimidagi nosozlikdan, balki bir nechta omillarning bir vaqtda to'planishidan kelib chiqadi.

Xalqaro iqtisodiy inqirozlarning yana bir muhim xususiyati - ishonch omilidir. Investorlar, banklar, korxonalar va iste'molchilar kelajakdagi vaziyatni salbiy baholasa, ular xarajat va investitsiyalarni qisqartiradi. Bu esa real iqtisodiyotga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun inqirozga qarshi siyosat faqat pul ajratish bilan cheklanmasligi, balki ishonchni tiklash, aniq kommunikatsiya yuritish va institutlar barqarorligini ko'rsatishga ham qaratilishi kerak.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, inqirozlar odatda uch bosqichda rivojlanadi. Birinchi bosqichda yashirin nomutanosibliklar to'planadi: kreditlar haddan tashqari ko'payadi, aktivlar qimmatlashadi, qarzarlar oshadi yoki savdo bog'liqligi bir yoqlama tus oladi. Ikkinchi bosqichda tashqi yoki ichki zarba ishonchni buzadi. Uchinchi bosqichda inqiroz moliya, ishlab chiqarish, bandlik va ijtimoiy sohaga tarqaladi. Inqiroz oqibatlarini yumshatish aynan birinchi va ikkinchi bosqichlarda profilaktik choralar ko'rilishiga bog'liq.

**Jadval 3. Yirik xalqaro iqtisodiy inqirozlarning qiyosiy tavsifi**

Inqiroz davri	Boshlanish omili	Tarqalish mexanizmi	Asosiy oqibat	Asosiy saboq
1929-1933	Fond bozori qulashi va talab qisqarishi	Bank tizimi, savdo proteksionizmi	Ishsizlik va ishlab chiqarish pasayishi	Talabni qo'llab-quvvatlash va bank nazorati zarur
2008-2009	Ipoteka va moliyaviy aktivlar pufagi	Banklararo kredit va kapital bozori	Global retsessiya, banklarni qutqarish	Moliyaviy tartibga solish kuchli bo'lishi kerak
2020-2021	Pandemiya va karantin	Ta'minot zanjiri,	Ishlab chiqarish	Favqulodda siyosat tez va

	cheklovlari	xizmatlar sektori	uzilishi, byudjet xarajatlari ortishi	koordinatsiyalashgan bo'lishi kerak
2022-2025	Energiya, oziq-ovqat va geosiyosiy shoklar	Narxlar, savdo, qarz, kutilmalar	Inflyatsiya, qarz bosimi, kambag'allik xavfi	Energiya va oziq-ovqat xavfsizligi strategik ahamiyatga ega

Manba: xalqaro inqirozlar tarixi va zamonaviy makroiqtisodiy tahlillar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Xalqaro iqtisodiy inqirozlar rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'pincha kuchliroq ta'sir qiladi. Chunki ularning eksport tarkibi tor, valyuta zaxiralari cheklangan, tashqi qarzga bog'liqligi yuqori va ijtimoiy himoya tizimi nisbatan zaif bo'lishi mumkin. Tovar narxlari pasayganda eksport tushumlari kamayadi, import narxlari oshganda esa inflyatsiya kuchayadi. Natijada bir vaqtning o'zida to'lov balansi, byudjet va aholi daromadlari bosim ostida qoladi.

O'zbekiston kabi ochiq iqtisodiyotga bosqichma-bosqich integratsiyalashayotgan mamlakatlar uchun xalqaro inqirozlar ikki tomonlama ahamiyatga ega. Bir tomondan, tashqi talab, migrantlar pul o'tkazmalari, import narxlari va investitsiya oqimlari global vaziyatga bog'liq. Ikkinchi tomondan, inqirozlar iqtisodiy diversifikatsiya, mahalliy ishlab chiqarish, eksport geografiasini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Inqirozlarga qarshi siyosatda birinchi yo'nalish - makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashdir. Bunda inflyatsiyani nazorat qilish, byudjet intizomini kuchaytirish, valyuta zaxiralarini yetarli darajada shakllantirish va bank tizimida risklarni cheklash muhim. Ikkinchi yo'nalish - iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish. Eksport bir nechta xomashyo yoki tor bozorga bog'lanib qolsa, tashqi shoklar iqtisodiyotga tez kirib keladi. Uchinchi yo'nalish - ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish. Chunki inqirozning eng og'ir yuki ko'pincha aholining zaif qatlamlariga tushadi.

To'rtinchi yo'nalish - xalqaro hamkorlikdir. Inqirozlar transchegaraviy xarakterga ega bo'lgani uchun ularni faqat milliy choralar bilan to'liq bartaraf etish qiyin. Savdo qoidalarini barqarorlashtirish, oziq-ovqat va energiya bozorlarida keskin cheklovlardan saqlanish, qarz restrukturizatsiyasi mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy xavfsizlik tarmoqlarini kengaytirish global darajadagi muhim vazifalardir.

### **Xulosa va takliflar**

Xalqaro iqtisodiy inqirozlar jahon iqtisodiyotining o'zaro bog'langanligi sharoitida tabiiy, ammo juda xavfli hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ular odatda bitta sababdan emas, balki moliyaviy zaifliklar, qarz bosimi, savdo uzilishlari, tashqi shoklar va siyosiy noaniqliklarning bir vaqtda kuchayishi natijasida yuzaga keladi. Inqirozlar real ishlab chiqarish, bandlik, narxlar, davlat moliyasi, tashqi savdo va ijtimoiy farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro iqtisodiy inqirozlarning oldini olishda eng muhim shart - nomutanosibliklarni erta aniqlashdir. Kreditlar haddan tashqari tez o'sayotgan, tashqi qarz ko'payayotgan, importga qaramlik kuchayayotgan yoki bank tizimida risklar to'planayotgan davrda profilaktik siyosat yuritilmasa, keyingi zarba butun iqtisodiyotga tarqalishi mumkin.

Maqola natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, moliyaviy sektor ustidan makroprudensial nazoratni kuchaytirish zarur; ikkinchidan, davlat qarzi va tashqi qarz barqarorligini doimiy monitoring qilish lozim; uchinchidan, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarni izlash kerak; to'rtinchidan, oziq-ovqat va energiya xavfsizligini

strategik siyosat darajasida mustahkamlash maqsadga muvofiq; beshinchidan, inqiroz davrida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi aniq ishlashi kerak.

Umuman olganda, xalqaro iqtisodiy inqirozlar iqtisodiy boshqaruvda ehtiyotkorlik, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va uzoq muddatli barqarorlik strategiyasini talab qiladi. Inqirozlarni butunlay yo'q qilish mumkin bo'lmasa-da, ularning oqibatlarini yumshatish, tarqalish tezligini kamaytirish va iqtisodiy tiklanishni tezlashtirish mumkin. Buning uchun milliy siyosat xalqaro hamkorlik, moliyaviy intizom va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un bo'lishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Monetary Fund. World Economic Outlook: Global Economy in Flux, Prospects Remain Dim. - Washington, DC: IMF, October 2025.
2. World Bank. Global Economic Prospects. - Washington, DC: World Bank, June 2025.
3. World Trade Organization. Global Trade Outlook and Statistics Update. - Geneva: WTO, October 2025.
4. UN Trade and Development. Global Trade Update: December 2025. - Geneva: UNCTAD, 2025.
5. UN Trade and Development. Global Crisis: Food, Energy and Finance. - Geneva: UNCTAD, 2024-2025.
6. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. - Boston: Pearson, 2022.
7. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. - New York: Pearson, 2019.
8. Blanchard O. Macroeconomics. - Boston: Pearson, 2021.
9. Stiglitz J.E. Globalization and Its Discontents Revisited. - New York: W.W. Norton, 2018.
10. Kindleberger C.P., Aliber R.Z. Manias, Panics, and Crashes: A History of Financial Crises. - London: Palgrave Macmillan, 2015.

#### Abstract      Аннотация

This article analyzes the causes and consequences of international economic crises. It examines financial instability, debt pressure, trade disruptions, energy and food price shocks, geopolitical tensions and policy uncertainty as major drivers of global crises. The paper also compares the Great Depression, the 2008-2009 financial crisis, the pandemic shock and recent energy-food disruptions.

В статье анализируются причины и последствия международных экономических кризисов. Рассматриваются финансовая нестабильность, долговая нагрузка, нарушения торговых цепочек, энергетические и продовольственные шоки, геополитическая напряженность и неопределенность экономической политики.